

ISAJON SULTONNING TARIXIY ROMANLARIDA POETIK STRUKTURA VA BADIY TO‘QIMA UYG‘UNLIGI

(Yozuvchining badiiy xarakter yaratish mahorati)

UrDU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

Xolmuratova Moxira Egamberganovna

E-mail:

moxlaroyim19910220@gmail.com

Tel raqami: +998933399120

Annotatsiya: Har qanday badiiy asarda yaratilajak obraz, avvalo, yozuvchining kishilarga va hayotga munosabatini aks ettiruvchi vosita hisoblanadi. U muallifning hayot hodisalariga bergan estetik bahosi hamdir. Har bir personaj o‘zida yozuvchining estetik idealini u yoki bu darajada tajassum etadi. Bu vazifani bajarish uchun o‘sha obraz muayyan ijtimoiy sharoitda, ruhiy va ma’naviy harakatlanishi lozim. Bu tabiiy ravishda ro‘y berishi kerak. Mabodo, san’at asarida muallif hayotdagi mavjud narsalarga, voqea-hodisalar va odamlar taqdiriga faqat sun’iy, rasmiy taqlid qilish maqsadi bilan yondashsa, bu badiiy asar emas, balki mahorat bilan yasalgan narsalar majmuasidangina iborat bo‘lib qoladi. Bunday sun’iylikdan holi bo‘lish uchun san’atkorning estetik tafakkuri aniq va barqaror bo‘lmog‘i shart.

Kalit so‘zlar: obraz, proobraz, san’at, estetik ideal, xarakter, personaj, konsepsiya, obyektiv, subyektiv, talqin.

Annotation: In any literary work, the image to be created primarily serves as a means of reflecting the writer’s attitude toward people and life. It also represents the author’s aesthetic evaluation of life phenomena. Each character, to a certain extent, embodies the writer’s aesthetic ideal. To fulfill this function, the image must develop naturally within a specific social environment, through psychological and spiritual movement. This process should occur naturally. If, in a work of art, the author approaches existing realities, events, and human destinies merely with the aim of

artificial or formal imitation, such a work ceases to be a true piece of art and becomes only a collection of skillfully constructed forms. To avoid such artificiality, the artist's aesthetic thinking must be clear and stable.

Keywords: image, prototype, art, aesthetic ideal, character, personage, concept, objective, subjective, interpretation.

Аннотация: В любом художественном произведении создаваемый образ, прежде всего, является средством, отражающим отношение писателя к людям и жизни. Он также представляет собой эстетическую оценку автора по отношению к жизненным явлениям. Каждый персонаж в той или иной степени воплощает эстетический идеал писателя. Чтобы выполнить эту функцию, образ должен естественно развиваться в определённых социальных условиях, через психологическое и духовное движение. Этот процесс должен происходить естественным образом. Если же в произведении искусства автор подходит к существующим явлениям, событиям и судьбам людей лишь с целью искусственного или формального подражания, то такое произведение перестает быть подлинным произведением искусства и превращается лишь в набор искусно созданных форм. Чтобы избежать подобной искусственности, эстетическое мышление художника должно быть ясным и устойчивым.

Ключевые слова: образ, прообраз, искусство, эстетический идеал, характер, персонаж, концепция, объективный, субъективный, интерпретация.

Xarakter – adabiyot va san'at asarlarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o'zida fe'l-atvor (xatti-harakat, kechinma, fikriy va nutqiy faoliyat)ning tarixan aniq tipini mujassamlantirgan, shuningdek, muallifning ma'naviy-estetik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi. Badiiy xarakter umumiy (takrorlanuvchi) va xususiy (takrorlanmaydigan); obyektiv (badiiy xarakterga proobraz bo'lib xizmat qilgan kishi hayotining ijtimoiy-psixologik asoslari) va subyektiv (proobrazning muallif tomonidan idrok va talqin etilgan) belgilarning o'zaro uyushgan hosilasidir. Adabiyot va san'at asarlaridagi xarakter tushunchasi falsafa, sotsiologiya va psixologiyadagi ayni tushunchadan obrazning

konsepsiyaviyligi bilan ajralib turadi. Adabiyot va san'at asarlarida qahramon shaxsining tashqi va ichki mohiyati uning xarakterini belgilaydi hamda bu qahramon xarakteri muallifning va boshqa personajlarning u haqidagi tavsifnomalari, shuningdek, syujet rivojidadagi o'rni va roli bilan inkishof etiladi. Adabiyot va san'at asarlarida tasvirlangan

qahramon har doim ham xarakter darajasiga ko'tarila bermaydi. Xarakter obrazdan farqli o'laroq, yozuvchidan katta mahoratni, qahramoning muayyan tarixiy-ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy sharoitdagi o'ziga xos o'rni va xususiy belgilarini teran ochishni taqozo etadi. Shu ma'noda epic janrlar yozuvchiga qahramon xarakterini yorqin yaratish imkonini beradi. Har bir milliy adabiyotning boyligi qahramonlar xarakterining rang barangligi bilan ham belgilanadi. Badiiy kashfiyot darajasiga ko'tarilgan xarakter ijobiy yoki salbiy mohiyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, har bir adabiyotning badiiy boyligini tashkil etib, o'zi mansub xalqning milliy xarakterini, milliy o'ziga xosligini badiiy mujassamlantirganligi bilan ham ahamiyatlidir.

U. Normatov qayd qilganidek: "Bizda ham falsafiy asosi jihatdan xilma-xil yo'nalishga mansub asarlar paydo bo'la boshladi. Moddiy dunyo qonuniyatlariga tarixiylik, ijtimoiy tahlil prinsplariga qat'iy amal qiladigan an'anaviy realizm bilan barobar deyarli barcha tur va janrlarda diniy, ruhoniyl-islomiy talqin ustuvor asarlar ko'payib bormoqda... Bu foniy dunyoning omonat, tagi puch g'oyalariga aldangan shaxs umrining, mehnatining bemaniligini qabariq tarzda, ko'pincha ramziy-majoziy timsollar vositasida butun keskinligi, fojeasi bilan ko'rsatuvchi absurt asarlar, absurt qahramonlar ham ko'payib qoldi..

Darhaqiqat, shaxsni faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida emas, ko'proq ilohiy, tug'ma – tabiiy, sirli-sehrli mavjudot tarzida ko'rsatuvchi, uning ijtimoiyyot, tarixiy sharoit-tuzim, davlat, siyosat, mafkuraga bo'ysunmaydigan g'aroyib tuyg'u, xislatlarini, ong-idrokdan tashqaridagi anglab yetilmagan holatlarini keying davr romanchiligi ramziy tasvirlar orqali ifodalashga intilmoqda.

Adabiyotshunos B. Sarimsoqov alohida ta'kidlaganidek, "Nazariy jihatdan san'at asari tabiatga hayotga taqlidan yaratiladi. Biroq bu taqlid hayotning oddiy nusxasidan iborat bo'lmasligi lozim. Ijodkor yaratgan badiiy voqe'lik hayot haqiqatiga mos, lekin o'ziga asos bo'lgan ana shu voqe'likdan ustun bo'lmog'i lozim. Hayotga taqlid badiiy ijodda muayyan iste'dod his-tuyg'usi, tafakkuri, ideali ta'sirida umuminsoniy qadriyatga bo'lgan yangicha badiiy hayot yaratish demakdir."

Adib har bir detalga ulkan ma'no yuklaydi. Bu ma'no yozuvchi yaratgan qahramonning xarakterini yanada yorqin yuzaga chiqishiga zamin yaratadi. Chunki har bir detal asar qahramonlari xatti-harakatining mahsulidir.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy qudrati og'ir sanoatning qanchalik rivojlanganiga qarab belgilanganidek, har qanday milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo'shgan hissasi ham undagi badiiy asarlar salmog'i bilan tayin etiladi. Chunki badiiy asar millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi. Qahramon atamasiga adabiyotshunoslik atamalari izohli lug'atida shunday ta'rif beriladi: "QAHRAMON, adabiy qahramon – 1) asar personajlari tizimida yetakchi mavqe tutib, g'oyaviy-badiiy konsepsiyani shakllantirish va ifodalashda muhim rol o'ynovchi shaxs obrazi. Terminni bu ma'noda tushunish epic yoki dramatik asar personajlarini darajalashni ko'zda tutadi: syujet voqealari qahramon atrofida uyushtirilib, boshqa personajlar u bilan bog'liq holda asar voqeligiga kiritiladi; ular qahramon bilan integrative aloqada (tobe-hokim) bo'lib, unga nisbatan yordamchi funksiyalarni bajaradi. Ko'p chiziqli murakkab syujet qurilishiga ega yirik hajmli asarlarda bir emas, bir nechta qahramon harakatlanishi ham mumkin. Bu holda personajlar sistemasi o'z ichida mikrosistemalarga ajralib, ularning markazida qahramonlardan biri turadi". Darhaqiqat, badiiy asar roman va qissa yoki hikoya bo'ladimi – har bir asarning o'z qahramoni bor. Shunday ekan bularning namoyon bo'lish qirralarini tasniflab o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy o'zbek nasri muallifdan har bir qahramonni tushunish va aks ettirishning birovnikiga mutlaqo o'xshamaydigan konsepsiyasiga ega bo'lish

talab qilinadi. “Badiiy asarda bosh qahramon asarning asosiy g’oyasi va umumiy ruhini pafos darajasida ushlab turishi lozim. Yo’qsa, asar pafosiga ham, qahramon jozibasiga ham putur yetadi”, - deb yozadi akademik B. Nazarov. Isajon Sultonovning qahramonlar xarakteristikasi ustidagi izlanishlarining ajralib turadigan o’ziga xosligi qahramonning avvalboshdanoq ekzistentsial kayfiyatda ekanligida ko’rinadi. Qahramon hayoti davomida ko’rgan-kechirganlaridan xulosa chiqara-chiqara, odamlardan begonalashib boradi. Asrlar mobaynida yechimini topmagan masalalardan charchagan paytlari o’ziga qamalib oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonov I., Adabiyot nazariyasi, T., 1980;
2. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: “Маънавият”, 2000, 5-б.
3. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т.: “Фан”, 2004, 97-б.
4. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati. – Т.: “Akademnashr” 2010 y. 277-bet.
5. Nazarov B. Davr va qahramon// O’zbek adabiy tanqidchiligi. – Т.: Fan. 1979. 215-bet.